

REALIYA TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

*Umarxonova Guliruxsor Murotxon qizi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

РЕАЛИИ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

Умархонова Гулирухсур Муротхон кызы, магистр 2-курса по специальности «Иностранный язык и литература» (английский язык) Термезского университета экономики и сервиса

REALIA AS AN OBJECT OF STUDY IN LINGUISTICS

*Umarxonova Guliruxsor Murotxon qizi, Termez University of Economics and Service
2nd year Master student of Foreign Language and Literature (English language)*

Annotatsiya: Ushbu maqola realiyalar, ularning mazmun-mohiyati, lingvomadaniy xususiyatlariiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada o'zbek tilidagi muqobilsiz leksika doirasiga kiruvchi realiyalar tahlil qilinib, tilga milliy koloritning o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: muqobilsiz leksika, realiya, etnografik, frazeologik va leksik birliklar, termin.

Abstract: This article is devoted to realities, their essence, linguacultural features. The article also analyzes the realities that are part of the Uzbek vocabulary, and shows the uniqueness of the national coloring characteristic of the language.

Key words: non-equivalent lexicon, realia, ethnographic, phraseological and lexical units, term.

Аннотация: Данная статья посвящена реалиям, их сущности, лингвокультурным особенностям. Также в статье анализируются реалии, входящие в состав узбекской лексики, и показывается своеобразие национального колорита, характерного для языка.

Ключевые слова: безэквивалентная лексика, реалии, этнографические, фразеологические и лексические единицы, термин.

KIRISH. Realiya termini lotincha “realis” – “ashyoviy”, “haqiqiy” degan ma’noni beradi va S.I.Ojegovning lug‘atida qayd etilganidek, “realiyalar moddiy madaniyati predmeti, obyektiv dunyo hodisasi, alohida jism, narsa sifatida ham namoyon bo‘ladi”[5].

L.K.Latishev leksik muqobilsizlikning dastlabki sababini “boshlang‘ich tilning leksik birligi uning sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan hamda til leksikasiga mustahkam o‘rnashgan hodisani bildirsa, bu hodisa tarjima tili sohiblariga ma’lum bo‘lmagan

va shu boisdan ularning leksik tizimida aks etmaganligida” ko‘radi. Olim ularga realiya deb nomlanuvchi – faqat shu xalqning moddiy va ma’naviy hayotiga xos bo‘lgan tushuncha sifatida qaraydi [4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODLAR.** O.S.Axmanovaning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da realiya termini quyidagicha izohlanadi: “Realiya (lot. realia – ashyoviy, haqiqiy) – tashqi lingvistika tomonidan o‘rganiladigan turlituman omillar – muayyan mamlakatning davlat



[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0007-2075-4140)

0007-2075-4140

e-mail:

Umarxonova91@gmail.com

tuzumi, xalqning tarixi va madaniyati, mazkur til sohiblarining kommunikatsiyada ishtiroki, moddiy madaniyat predmetlari” [1].

S.I.Vlaxova va S.Florinning fikricha, “Realiyalar aksariyat hollarda ot so‘z turkumiga oid birliklar bilan ifodalanadi. Darhaqiqat, yuqorida ko‘rib chiqilgan ta‘riflardan kuzatiladiki, realiyalar ko‘pincha predmetlar va hodisalarni nomlaydi. Shuningdek, realiyalar deb otdan yasalgan sifatlarni ham hisoblash mumkinki, ularning mazmuni bevosita realiyalar mazmuni bilan bog‘liq”[2]. O‘zbek tilshunos olimi I.Mirzayev “Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык” nomli nomzodlik dissertasiyasida fransuz so‘z realiyalarini lingvostalistik xususiyatlari va ularni o‘zbek tilida berilishini tadqiq qilgan. Olimning tadqiqotida fransuz realiyalarining o‘zbek tilida berilishi, tarjima muammolari badiiy adabiyot misolida olib berilgan.

MUHOKAMA. Mavzu borasida olib borilgan tadqiqot natijasiga ko‘ra I.Mirzayev realiyalarini til birligining muhim leksik birligi sifatida qarab, realiya milliy xususiyatni namoyon qiladi, deb hisoblaydi va quyidagicha ta‘riflaydi: “Realiya so‘zlar bir ma’noli so‘z yoki so‘z birikmalari bo‘lib, milliy tushuncha va predmetlarni, shuningdek, hodisalarni anglatadi. Realiyalar ijtimoiy geografik, etnografik, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi. Shuning bilan birga realiyalar tegishli til qonuniyatlariga bo‘ysunadi”[3]. Olim realiyalar mavjud, tegishli bo‘lgan tilning qonuniyatlariga bo‘ysunishi borasida fonetik, leksik va grammatik qonuniyatlarini nazarda tutadi.

Shuningdek, realiyalar uchun polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisasi xarakterli emasligi, shunga qaramay, realiyalarda omonimiya hodisasi kuzatilishi hamda ularning asosiy funksiyalaridan biri nominativlik ekanligini ta‘kidlaydi. Olim realiya so‘zlarni “sof ko‘rinishdag‘i termin” sifatida qaraydi. Mazkur fikrlarining isboti sifatida quyidagi o‘zbek realiyalarining ingliz va rus tillarida ifodalanishini kuzatishimiz mumkin: хужра – hujra – хужра, гузар – guzar – гузар, куроқ – kurok – курок, мисвоқ – misvok – мисвок, тиллақош – tillakosh – тиллакош, чакмон – chakmon – чакмон va h.k.

Realiyalar borasida yana bir muhim mezon A.D.Shveyser tomonidan berilgan. Bu realiyaning xabardagi funksional vazifasi mezoni bo‘lib, u

funksional xususiyatdir. Ushbu mezonni e’tiborga olgan holda, tarjimon bir nechta alohida holatda “realiya muammosini yechishi” mumkin:

realiya matnning ma’no tarkibida ahamiyatsiz yuklamaga ega bo‘lmasa;

realiya faqat epizodik tarzda tilga olinsa;

agar realiya denotativ emas, ekspressiv funksiyani bajarsa va demakki, tarjima matni o‘quvchisida aniq obrazli assotsiasiyalarni chaqira olmasa[6].

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar tahlilidan ko‘rinadiki, realiyalar lingvistik adabiyotlarda asosan uchta yo‘nalishda tadqiq qilingan:

1) realiyalarning struktur-semantik tavsifiga ko‘ra;

2) realiyalarning o‘zga tilga berilishida til qonuniyatlarini masalasiga ko‘ra;

3) tarjimada realiyalarning berilish muammolariga ko‘ra.

NATIJALAR. Ta‘kidlash lozimki, o‘zbek realiyalarining media tilida berilishi lingvistikating ilmiy-metodolik tamoyillariga asoslangan holda hamda realiyalar umumiy tasniflarining turlarini umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Materiallar tahlili o‘zbek tili muqobilsiz leksikasining milliy-madaniy o‘ziga xosligi ularning alohida tarkibiy qismalarida ham murakkab tarzda namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Masalan: “The shelves, which go right up to the ceiling, are lined with traditional kumgans (jugs) as well as books on art ...”; “Орнамент бугджома у узбеков племени Кунград напоминает излюбленные ими ковровые узоры и отличается геометрическими ритмами, полными динамики и внутреннего напряжения”. “Kapkyrs sold at the Temirchilik market in Andijan are a true ode to plov”; “Широкий капкыр с очень короткой рукоятью — для итогового перемешивания плова”; “In Surkhandarya, small floor mats made from pieces of dyed sheepskin are still used today (poustak, khasali poustak)”; “До сих пор в Сурхандарьинской области в быту используются коврики, сшитые из нарезанных на лоскуты и окрашенных овечьих шкур – пустак, хасали пустак”.

Bunday realiyalar, albatta, qaysidir ma’noda o‘zbek auditoriyasi uchun ham notanish bo‘lishi mumkin.

Ingliz hamda rus tillarida o‘zbek tiliga oid leksik birliklar tomonidan ifodalaniladigan etnomadaniy realiyalar etnos uchun milliy qadriyat

vazifasini bajarganligi sababli, ularga ingliz va rusiyabon o'zbek matbuot leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilaydigan omillardan biri sifatida qarash maqsadga muvofiq. Zero, mediamatnda realiyalar ifodasi omilini qadriyatlar omili, deb yuritsa ham mubolag'a bo'lmaydi.

Realiya so'zlar muayyan xalq yoki mintaqaning tushunchalar, predmetlar, siyosiy ijtimoiy, madaniy, maishiy hamda tarixiy voqelikning u yoki bu qismini aks ettiradi, shu boisdan ular tildan tashqari voqelik bilan chambarchas bog'liq. Bunda albatta, rus va ingliz tillariga o'zbek realiyalarining berilishida nafaqat lingvistik, balki ekstralolingvistik xususiyatlarni ham inobatga olish zarurati tug'iladi. Zero, ekstralolingvistik sabablar til tashuvchilarining yuqorida ko'rsatib o'tilgan voqeliklarni yoritishi bilan bog'liqidir.

XULOSA. Shunday qilib, realiyalarning paydo bo'lishi ham lingvistik, ham ekstralolingvistik omillar bilan asoslangan hamda turli til sohiblarining ijtimoiy iqtisodiy va milliy-madaniy tarixiy rivojlanishidagi jiddiy farqlar kiradi. Realiyalar alohida olingan xalq madaniyati va boshqa

madaniyatda takrorlanmaydigan madaniyat obyektlari bilan chambarchas bog'liq. Aytish mumkinki, realiyalar alohida xalqning madaniyatiga xos atributiv xususiyatlarni namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС: Едиториал УРСС, 1996.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 2009.
3. Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Ленинград, 1975.
4. Латышев Л.К. Перевод: теория, практика и методика преподавания. – М.: Академия, 2003.
5. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – М.: Азбуковник, 2006.
6. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2009.

